




International Scientific and Practical Conference on the
topic: " Sustainable Architecture – Challenges and
Achievement of the Present and Future"



SHOXI-ZINDA MAJMUASI ME'MORIY BEZAKLARINING UMUMIY TA'RIFI

Yaxyayev Abdulla Abdujabborovich

Toshkent arxitektura-qurilish universiteti, Toshkent, O'zbekiston
Dpijod@mail.ru

Annotatsiya: Maqolada Shoxi-Zinda inshootlariga oid tarixiy ma'lumotlar keltirilgan bo'lib, bu binolarda me'moriy yechim, bezak yo'llarini o'ziga xos uslubda yaratgan ustalar nomlarini tadqiq qilingan.

Kalit so'zlar: majmua, bezak, arxeologik, mayolika, o'ymakor, muqarnas, darcha, panjara, sopol, koshinburush.

Аннотация: В статье приводятся исторические сведения о постройках Шохи-Зинда, исследуются имена мастеров, создававших архитектурное решение и декоративные дорожки в этих постройках в своем стиле.

Ключевые слова: сложный, украшение, археологический, майолика, резчик, мукарнас, окно, изгородь, керамический, кошинбуруш.

Annotation: The article provides historical information about the buildings of Shokhi-Zinda, and researches the names of the masters who created the architectural solution and decorative paths in these buildings in their own style.

Key words: complex, decoration, archaeological, majolica, carver, muqarnas, window, fence, ceramic, koshinburush.

Kirish. O'rta asr maqbaralarida serxashamlilik, badiiy jozibadorlikka intilish turli badiiy mahorat maktablarini kelib chiqishiga olib keldi. Yagona funksional masalalarni turli badiiy uslublarda hal etish natijasida, ma'lum bir joyda joylashgan Shoxi-Zinda maqbaralari xashamida Mavoraunnaxr me'moriy bezak san'atining rivojlanish bosqichining barcha ko'rinishini kuzatish imkoniyatiga ega bo'lingan.

Me'moriy bezak san'atining XI-XII asrlarda keng tarqalgan silliqlangan g'ishtin shakllari va o'yma ganchning turli naqshlari Shoxi-Zinda majmuasining yuqori qismida, arxeologik qazishmalar natijasida aniqlangan inshootlar hashamida topildi. Ularning yuksak badiiy namunasi Tamg'och Bug'roxon madrasasi (XI asr) qoldiqlarida namoyon bo'lgan. Silliqlangan g'isht qoplamalarda geometrik, islimiy naqshlar va epigrafik matnlar tushirilgan. Bunday o'yma g'ishtin, sopol bezak, Qusam ibn Abbos maqbarasi asosida shakllangan majmua tarkibidagi, minora hashamida qo'llanilgan. Shuningdek, bunday bezak turlari arxeologik tadqiqotlar orqali aniqlangan qadimiy maqbaralar qoldiqlarida ham ko'plab uchraydi. G'ishtin shakl bezaklar, keyinchalik, ular orasiga bir xil rangli koshin bo'laklarini joylashtirish

hisobiga boyitilgan.

Asosiy qism. G'ishtin o'yma shakl, sopol bezaklar asosida xoshiyalar, arabiy yozuvli ktobalar, burchak nim ustunlar yaratilgan. XII asrning oxiridan boshlab esa ularga sir berilgan namunalari ishlab chiqilgan edi. G'ishtin bezaklar o'rmini yagona sirkor rangli (havorang) o'yma sopol qoplamalar egallashi ham shu davrdan boshlab keng tarqaldi. XIV asrga kelib sirsiz o'yma terrakota bezaklarni turli rangli sirkor koshin qoplamalar butunlay siqib chiqardi. Shoxi-Zindaning XIV asr boshlaridan bunyod etilayotgan maqbaralari xashamida havorang sirkor o'yma naqshlar rangida yashil, ko'k, oq, jigarranglar qo'shilgan. Bunday bezak turini barcha uslublari XIV asr o'rtalarida qurilgan Xo'ja Axmad, usta Ali Nasafiy kabi maqbaralar tashqi bezaklarida to'laligicha aks ettirildi. XIV asrning oxirgi choragida qurilgan maqbaralar bezagida sirkor koshinning mayolika turi yetakchi usulga aylandi. Bir necha o'n yil ichida mayolika koshinining yuksak badiiy xususiyatini namoyon etadigan texnologiyalar yaratilgan edi. Shakllarning bosma, o'yma, relefli turlari koshin taxtachalarda (mayolikada) aks ettirilgan. Va bu sopol taxtachalar yig'masi bilan murakkab girix, islmiy naqshlar kompozitsiyasi yaratildi.

Bu davr mayolikasi bilan naqshlarning jozibador bo'rtma gullarining mayin ranglari kontur qoramtir chiziqlar orqali aniq ingichka xoshiyalari orqali tahtachalarda yirik kompozitsiyaviy tizimlar ham yaratilgan. Pishirilgandan so'ng tilla hal bilan ishlov berish texnologiyasini Temuriylar davrida majmuada bunyod etilgan maqbaralar hashamida qo'llanishi esa ularning badiiy jozibadorligini yanada kuchaytirdi. Eron (asosan Tabriz), Xorazm ustalari tomonidan yaratilgan bezaklar koshinburush uslubining yuksak namunalarini o'zida aks ettirdi. Dastlab, naqsh yo'llarida islmiy gullar geometrik shakllarni siqib chiqarsada, keyinchalik, o'yma sopol bezaklardagi kabi naqsh asosini girix tashkil etib, uning yulduzsimon xosilasi bo'lgan ko'pqirralik bo'laklari ichki sirti islmiy gullar bilan to'latila boshlandi. Masalan, Amir Temurning 1386 yili vafot etgan singlisi Shirin bika-ako uchun bunyod etilgan maqbaraning tashqi bezak yo'llari deyarli islmiy naqshlarda bajarilgan. Biri-biri bilan chirmashgan shoxchalar ranglar bilan ajratilgan bo'lib, bir tekisda sirt yuzasiga tarqatilgan. Va aksincha 1405 yilda Amir Temurning xotini Tuman aqo nomi bilan bunyod etilgan binolar guruhining tashqi bezagida esa birinchi plan yirik yulduzli girix shaklida, oq-qora ranglarda bo'rttirilib, faqat girihning yirik sirtlari tugallangan islmiy naqsh kompozitsiyalari bilan qoplangan.

Bu ikki maqbaraning, koshinburush texnologiyasida tayyorlangan, sirkor qoplamalari Markaziy Osiyo me'moriy bezagida koshinburush uslubining keyingi rivojlanish yo'nalishini belgilab berdi. XVI-XVII asrlarda ham ustalar bezak san'atida bu uslubga bir necha bor qaytib, Buxoro, Samarqandning nodir yodgorliklarida aks ettirdilar. XV asrda koshinburush (qirqma mozaika) bezaklarda mayolika, mozaika taxtachalar bilan hamohang qo'llash usuli alohida rivojlandi. Koshinburush bilan epigrafik naqshlar ya'ni – naqsh darajasida bajarilgan arabiy yozuvlar kufiy, suls, ayrim hollarda nastaliq xatida bajarilib, mayolika va mozaika bilan islmiy naqshlarga uyg'unlikda yaratilgan.

Me'moriy bezaklarning naqsh yo'llarida me'moriy epigrafika alohida o'rin tutgan. Joylanishi, xat usuli va nisbatlari turli-tuman bo'lgan va diniy, tarixiy matnlarning naqsh yo'llarida me'moriy inshoot hasham kompozitsiyasiga kirib kelishi, dastlab o'yma g'isht, sopol qoplamalarda bajarilgan bo'lsada, bezak san'atining keyingi rivojlanish bosqichlariga kelib chiqqan sirkor rangli koshin materiallarda me'moriy epigrafika o'zining ta'sirchanligini yuksak darajaga olib chiqqan. Uzoq masofadan ko'rinadigan yirik yozuvlar gumbaz poy qurilmasi, yirik va baland peshtoqlarga o'rnatilgan bo'lsa, yaqindan o'qiladigan darajadagi yozuvli bezaklar mo'jaz, shinam inshoot tarzlari, sirtlariga mahorat bilan

qo'llanildi. Bunday yozuvlarning dastlabki yuksak jozibador namunasini 1342 yilda qurilgan Xo'ja Axmad maqbarasi peshtog'ida uchratish mumkin. Shoxi-Zinda majmuasi yo'lagiga qaragan tarzlarning barchasida me'moriy epigrafika san'atining barcha asosiy turlari mujassam bo'lgan. Nozik yozuvlar bilan xoshiyachalar, nimustunchalar, kichik-kichik namoyonchalar bezatilgan bo'lsa ham, ularning umumiy bezak kompozitsiyasidagi o'rni shu joydagi yirik yozuvli naqshlar bilan hamoxangdir. Yozuvlar matni, masshtabi, materiali, bajarish texnikasi inshoot bezagining umumiy yechimi bilan yagona uyg'unlikda bo'lgani inshootga alohida estetik ruh bag'ishlaydi.

Me'moriy bezak, shakllar, materiallar, texnik va badiiy uslublarning rivojlanishi bilan parallel ravishda me'moriy epigrafika san'ati ham yuksaldi. Ganch o'ymakorligining yuksak namunasi bo'lgan muqarnaslar va o'yma bezaklar ham XV asr yodgorliklarida katta mahorat bilan qo'llanildi. Masalan, Qo'sh gumbazli, Ulug'bek davrida bunyod etilgan, maqbaraning go'rxona qismining gumbaz osti bezaklarida muqarnasning nozik turi bajarilgan. Shuningdek, yog'och o'ymakorligiga oid bezak turini Qusam ibn Abbos ziyoratgohiga kirish eshigidagi nozik, samarqandcha usulda bajarilgan, naqshlar belgilab bergan. Samarqandning qadimiy rangli shishasi ham me'moriy bezaklarda ishlatilgan (Shirin bika ako maqbarasidagi deraza-panjaralari).

Shoxi-Zindaning me'moriy bezaklari bo'yicha dastlabki ta'riflardan birini, asosan Qusam ibn Abbos go'rxonasining qadimiy ko'rinishi haqida, o'rta asr sayyohlaridan XIV asrning 30-yillarida Samarqandga tashrif buyurgan Ibn Battuta bergan. U majmuaning XIV asrda bajarilgan qayta qurilishlardan avvalgi holatini ko'rib, ularga baho beradi. Uning yozishicha "... Qabr ustiga yashil, qora, oq va qizil rangli marmardan qilingan har biri qo'sh ustunli to'rt asosga o'rnatilgan gumbaz tiklangan. Maqbara devorlari turfa rang va tilla hal yurutilgan marmar mozaika bilan bezalgan; uning gumbazi qo'rg'oshin bilan qoplangan; sag'ana inkrustatsiyalangan yog'ochdan bo'lib, burchaklari ko'mish bilan qoplangan. Ichkariga ko'mish chirog'don osilgan...". Ibn Battutaning bu ta'rifi qanchalik haqiqatga yaqinligini hozirda aniqlash qiyin, chunki Qusam ibn Abbos ziyoratgohi, go'rxonasi va masjidi keyingi asrlarda qayta qilingan. Xususan, gumbaz qo'rg'oshin bilan qoplanganligi, turli rangli marmar ustunlar haqidagi ma'lumotlari koshin qoplamalarga oid bo'lishi ham mumkin. Shunday bo'lsada, o'rta asr muallifining bu majmua haqidagi ma'lumotlari katta qiziqish uyg'otadi [1].

XIX asrning 30 yillariga oid ma'lumotlar esa tarixchi Abu Toxirxojaning "Samariya" asarida keltirilgan [2]. Me'moriy majmuaning badiiy-bezak uslublari alohida o'rganish XX asrning 30 yillaridan boshlab, tadqiqotchilar G.N.Tomaev, Sh.E.Ratiya, S.N.Polupanov, N.N.Sokolova, S.A.Sudakova, B.P.Veymarn, Ye.Kon-Vinerlar tomonidan olib borildi. Ular bezaklarning ayrimlarini chizmada qayd etib, naqsh yo'llarini o'rganishganlar faqat, XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab majmua yodgorliklarini kompleks ilmiy tadqiqot olib borishga kirishildi. Lekin, olib borilgan tadqiqotlar ko'lami va maqsadi faqat saqlanib qolgan holatni mustahkamlashga yo'naltirilgan edi [3].

Me'moriy bezaklarga oid ko'plab materiallar yig'ilsada, ularning kelib chiqishi, tayyorlash texnologiyasi bo'yicha ilmiy tadqiqotlar ko'lami katta bo'lmagan [4, 5]. Shoxi-Zinda yodgorliklarining ayrimlariga oid tajriba – sinov ishlari olib borilib, qolganlarining bezak qoplamalari konservatsiya qilingan. Lekin, ular ma'lum vaqtdan so'ng yana to'kila boshladi. Shunday bo'lsada bu materiallar asosida Shoxi-Zinda me'moriy bezaklarining uslubi, turlari, rivojlanishiga oid ilmiy asarlar tayyorlandi. Rempel L.I, Shvab Yu.Z. va boshqalarning qadimiy me'moriy bezakka oid tadqiqotlarida Shoxi-Zinda inshootlari hashamiga oid ko'plab qimmatli xulosalar berilgan. Rempel L.I. va Bulatov M.S. asarlarida

[6, 7, 8] naqsh yo'llari, ularni kelib chiqishiga, uslublariga oid ma'lumotlar keltirilgan.

V.M.Filimonov esa Qusam ibn Abbos ziyoratgohi tarkibidagi, devor oralig'ida saqlanib qolgan, hozircha aniqlangan eng qadimiy yog'och o'ymakorligi namunasini (XI asr) tadqiq etgan [9]. Epigrafik me'moriy bezaklarni o'rganish ham hamon tadqiqotchilar nazaridan chetda qolmagan. Xatti kufiy, suls, nastaliq usulida bajarilgan jimjimador yozuvli koshin bezaklarni o'rganib, matnni tarjima qilish borasida V.A.Shishkin, O.F.Akimushkin, A.A.Ivanovlar maqolalar chop ettirdilar [3, 10]. Shunday bo'lsada, tarixiy, diniy matnlarni tadqiq qilishda, bezak yo'llarida alohida me'moriy xattotlik uslubini aniqlash, matnni asl ma'nosini o'qishda turlicha natijalar olingani uchun majmuada aks etgan me'moriy xattotlikni alohida mavzu sifatida o'rganishni taqozo etadi. Bu borada P.Zohidovning qadimiy manbaalardan chuqur taxlil asosida yangi ma'lumotlarni topish usulini qo'llash maqsadga muvofiqdir.

O'zbek olimi P.Zohidov ilmiy izlanishlarida Shoxi-Zinda inshootlariga oid tarixiy ma'lumotlar keltirilgan bo'lib, bu binolarda me'moriy yechim, bezak yo'llarini o'ziga xos uslubda yaratgan ustalar nomlarini tadqiq qilingan. P.Zohidovning yozishicha Shoxi-Zinda majmuasining o'rta guruh yodgorliklariga taaluqli Shodi Mulk aqo maqbarasi Amir Temurning singlisi Qutlug' Turkan aqo tomonidan 1372 yilda vafot etgan "mulkning billuri" hisoblangan qizi Shodimulk aqo qabri ustiga qurilgan. Maqbara peshtoqidagi o'ymakor va sirkor bezaklar orasida binoni bunyod etgan ustalar nomlari "Amali ustod Shamsiddin", "Amali ustod Badriddin", "Amali Zayniddin binni Shamsiddin Buxoriy" sifatida qayd etilgan. Maqbaraning o'zi bir xonali, kvadrat tarx, peshtoq va qovurg'ali gumbazli me'moriy yechimga ega. Bino ichki va tashqi tomondan sirkor g'ishtchalar, o'ymakor sirli parchinlar bilan yuqorida nomlari keltirilgan ustalar tomonidan jimjimador naqshli, serjilo feruza rangga moyil qilib bajarilganini P.Zohidov o'z tadqiqotlarida ma'lum qiladi. Shuningdek, u ushbu maqbara yaqinida 1376 yilda qurilgan Tug'li Tekin maqbarasiga ham tavsif bergan. Ayniqsa, bu maqbaraga qarama-qarshi qurilgan Shirin bika oqo (1385 yili amir Tarag'ay qizi qabri ustiga bino qilingan) maqbarasi haqida, uni Shaxrisabzning guldor do'ppisiga o'xshatadi. Baland peshtoq, tik gumbazli bu maqbarada qirqma koshinlar lojuvard, feruza va oq ranglarda o'sha nafis qilib bajarilganini qayd etgan. P.Zohidov bino ichkarisidagi naqshlarda mayda va nafis gullar, qushlar tasviri qilqalamda tushirilgan deb tasvirlaydi. Darchalaridagi panjaralar orasida rangli Samarqand oynasi (vitraj) bo'lgani haqida ham yozgan. Hozirda bu tasvirlar saqlanib qolmagan. Rangli shishalar esa qisman bizgacha yetib kelgan.

P.Zohidov Shoxi-Zinda yo'laginging qoq o'rta qismida joylashgan va qarshilik usta Ali Nasafiy nomi bilan ataladigan ulug'vor maqbaraga ham ta'rif bergan. Uning yozishicha bu maqbara tuzilishi va bezaklari uslubi jihatidan qatordagi binolardan ajralib turadi. Ayniqsa, uning turli ranglarda sir berib tushirilgan sopol koshinlarining naqshlari jozibali. Me'mor – usta xattot sifatida xatti kufiy yozuvlarini jimjimoli naqshlarga monand qilgan. Shuningdek, P.Zohidov Shoxi-Zinda majmua yo'laginging g'arbiy hovlichasini tarzlari bilan shakllantirib, o'ziga xos me'moriy tarzlar kompozitsiyasiga aylantirgan uch maqbara – Xo'ja Ahmad (1342 y), Qutlug' oqo (1361 y) va Tuman aqo (1405 y) maqbaralar haqida ham so'z yuritdi.

P.Zohidovning keltirishicha Xo'ja Axmad Daylaniy nomli so'fiy olim dafn etilgan maqbara peshtog'ining g'arbiy pilpoyasidagi yirik yozuv oxirida tarixiy matn bo'lgan ekan, lekin ular yozilgan koshinlar to'kilib yo'qolgan. Peshtoq bezaklari orasidagi nozik gulbarg ichida me'mor Faxr Alining nomi saqlangan. Ushbu maqbaraning sharqidagi Qutlug' oqo maqbarasi (1361 y) bezaklarini taxlil etgan P.Zohidov uning muallifi shu usta Faxr Ali bo'lsa ajab emas degan mulohazaga kelgan. G'arbdagi Tuman

aqo maqbarasi peshtoqidagi yozuvlar bezagi orasida aniqlangan matndagi “Xati Shayx Muxammad binni Hoji Bandgir al-Tabriziy” so‘zi bezaklarni bajargan usta nomi degan xulosaga keladi. Tarixchi Sharofiddin Ali Yazdiy va Ibn Arabshoxlarning qayd etishlaricha, Shayx Muxammad mashhur kotib-xattot bo‘lgan.

Xulosa. Yuqorida keltirilgan misollar Shoxi-Zinda majmuasidagi har bir bino me‘moriy bezaklari ularning qurilgan davridagi badiiy naqsh san’ati, texnologiyasini yuksak darajada egallagan mohir usta va me‘morlar tomonidan bajarilganiga guvohlik beradi. Shoxi-Zinda me‘moriy bezaklarini chuqur o‘rganishda har bir davrdagi bezak san’atini rivojlanish bosqichidagi ustalar uslubi, naqsh yo‘llari, bezak texnologiyasini alohida tadqiq qilish zarurdir. Shoxi-Zinda binolari ta‘mirida har bir maqbara uchun maxsus yo‘nalishdagi tadqiqotlarni olib borish taqozo etiladi. Chunki majmuaning har bir inshooti bir-biridan tarixiy, qurilmaviy va badiiy uslubiy jihatdan keskin farq qiladi. Nisbatan, kichik bir xududdagi hozircha aniqlangan 50 ga yaqin yodgorlikning har biri alohida nodir inshoot bo‘lgan.

Adabiyotlar ro‘yhati

1. Ибрагимов Н. Ибн Баттута и его путешествия по Средней Азии. М.1988.
2. Абу Тохирхожа, Самария. Т.1991.
3. Акимушкин О.Ф, Иванов А.А. К чтению надписей с именами мастеров на мавзолеях Шахи-Зинда в кн. “История и культура народов Средней Азии”. М.1976.
4. Гражданкина Н.С. Строительные материалы ансамбля Шахи-Зинда. в кн. “Зодчество Узбекистана” в II. Т.1970.
5. Гражданкина Н.С, Рахимов М.К. Архитектурная керамика Узбекистана. Т.1968.
6. Немцова Н.Б, Шваб Ю.З. Ансамбль Шахи-Зинда. Т.1979.
7. O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi. Tarix instituti. Temur va Ulugbek davri tarixi. Т.1997 у.
8. Bulatov S. O‘zbek halq amaliy bezak san’ati. Т.1991у.
9. Филимонов В.М. Древние резное дерево из комплекса Кусам ибн Аббаса в ансамбле Шахи-Зинда. в сб. “Искусство зодчих Узбекистана”. 1 Т.1962.
10. Шишкин В.А. Надписи в ансамбле Шахи-Зинда. в кн. “Зодчество Узбекистана” в II. Т. 1970.
11. Yakhyaev, A., & Rejapova, D. (2019). KUSHKI DILKUSHO PALACE: SCIENTIFIC DISCUSSIONS. *Problems of Architecture and Construction*, 2(2), 41-45.
12. Abdujabborovich, Yaxyaev Abdulla. "Ulugbek Period Architecture." *Turkish Journal of Computer and Mathematics Education (TURCOMAT)* 12.3 (2021): 3134-3141.
13. Яхьяев, Абдулла Абдужабборович, and Орифжон Икромович Сабиров. "ПРИМЕНЕНИЕ РЕГУЛЯРНОГО СТИЛЯ В ЛАНДШАФТНОМ ДИЗАЙНЕ И ЕГО ОСОБЕННОСТИ." *PEDAGOGICAL SCIENCES AND TEACHING METHODS* 2.18 (2022): 52-57.
14. Abdujabbarovich, Yaxyayev Abdulla. "The Architecture Of Towers In Uzbekistan Heritage."
15. Яхьяев, Абдулла Абдужабборович, and Дилафруз Акромовна Режапова. "ЎЗБЕКИСТОННИНГ БУЮК ИПАК ЙЎЛИДАГИ САВДО-МАДАНИЙ МАРКАЗЛАРИ." *Новости образования: исследование в XXI веке* 1.4 (2022): 572-576.